



UDK: 81:02

LEKSIKOGRAFIYA TARAQQIYOTI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

*Ashurova Sitora Erkinovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada leksikografiyanı kelib chiqish tarixi hamda ushubu sohani rovojlantirishga hissa qo`shgan olimlar va uning hozirgi kunda tilshunoslikdagi ahamiyati, jahon tanigan olimlarning bu boradagi fikr va mulohazalari haqida muhokama qilnadi.

KALIT SO`ZLAR: leksikografiya, ilm-fan tehnologiya, lug`at, ibora, amaliy va nazariy leksikografiya, elektron lug`at

РАЗВИТИЕ ЛЕКСИКОГРАФИИ И ЕЕ СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается история возникновения лексикографии, ученые, внесшие вклад в развитие этой области, ее значение в современной лингвистике, а также мнения и наблюдения всемирно известных ученых по этому вопросу.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: лексикография, наука и техника, словарь, фразеология, практическая и теоретическая лексикография, электронный словарь

THE DEVELOPMENT OF LEXICOGRAPHY AND ITS PRESENT VALUE

ANNOTATION: This article discusses the history of the origin of lexicography, the scientists who contributed to the development of this field, its current importance in linguistics, and the opinions and observations of world-renowned scientists on this subject.

KEYWORDS: lexicography, science and technology, dictionary, phraseology, practical and theoretical lexicography, electronic dictionary

KIRISH. Jahon miqyosida ilm-fanning turli sohalari rivojlanishi qatorida lug`atshunoslik sohasi, ya’ni leksikografiya ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Chunki ilm-fan va texnologiyaning rivoji til birliklarimizning ham rivojiga olib kelyapti va hamma sohalarda lug`atlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa tadqiqotchilar uchun lug`atlarning tub mohiyatini o‘rganish, ularning lingvistik hamda ijtimoiy vazifalarini, shuningdek, yaratilish qonunlari va tamoyillarini tadqiq etish va ularni ilmiy asoslashni

taqozo etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, zamon talablariga mos lug‘atlarni yaratish jahon ta’limida beqiyos o‘ringa ega. Shu sababli zamonaviy lug‘atchilikning xalqaro tamoyillarini qiyosan tadqiq etish orqali o‘rganish va uni ijobjiy jihatlarini milliy lug‘atshunoslik amaliyotiga tatbiq etish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyo leksikografiysi ming yillik tarixga ega bo‘lsada, uning asosiy rivoji keyingi 2-3 asrga to‘g‘ri keladi. Ilk bor oz sonli so‘zlar va iboralardangina tashkil topgan qo‘l yozmalardan boshlangan lug‘atlar hozirgi kunga kelib tillarning yuz ming so‘zlarni o‘z ichiga olib, minglab nusxada chop etilmoqda. Keyingi yillarda leksikografiyaning faqatgina amaliy tomoni emas, balki nazariy yo‘nalishi, obyekti, predmeti ham shakllandi. Lug‘at tuzish nazariyasi, amaliyoti mana shunday o‘ta mashaqqatli, o‘ta mas’uliyatli sohasi bo‘lganligi sababli ushbu yo‘nalish bilan yetuk, fidokor olimlar shug‘ullanmoqdalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Agar amaliy leksikografiya ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lsa, nazariy leksikografiya XX asrning 2-yarmidagina shakllangan. Uning ilmiy asoslari J. Kasares (“Zamonaviy leksikografiyaga kirish”, 1958), L.V. Shcherba (“Leksikografiyaning umumiy nazariyasi bo‘yicha tajriba”, 1974), V.V. Vinogradov (“Leksikologiya va leksikografiya”, 1977), L.P. Stupin (“Ingliz tilining leksikografiyasi”, 1985) va boshqa tadqiqotchilar asarlarida o‘z aksini topgan.

Leksikografiya termini bizga XX asrning o‘rtalaridan kirib keldi va hatto tilshunoslar olimlarning o‘rtasida ham ko‘plab munozaralarga sabab bo‘ldi. Quyida bu terminni turli tillar lug‘atlarida berilishini ko‘rib chiqamiz:

Leksikografiya [leksiko..+ *yun.* grapho - yozaman] - Lug‘at tuzish nazariyasi va lug‘at tuzish ishi; lug‘atshunoslik, lug‘atchilik. *O‘zbek leksikografiysi*.¹⁹⁵

Leksikografiya (*yun.* lexikos - lug‘at +. grapho - yozaman) - *q.* Lug‘atshunoslik.¹⁹⁶

Lexicography - The professional activity and academic field concerned with DICTIONARIES and other REFERENCE WORKS. It has two basic divisions: lexicographic practice, or DICTIONARY-MAKING, and lexicographic theory, or DICTIONARY RESEARCH.¹⁹⁷

(Leksikografiya - LUG‘ATLAR va boshqa MANBA ASARLARI bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy faoliyat va akademik soha. U ikkita asosiy bo‘limdan iborat: leksikografik amaliyot yoki LUG‘ATLAR yaratish va leksikografik nazariya yoki LIG‘ATLARNI tadqiq qilish).

Lexicography (ləksɪ'kɒgrəfɪ) [f. Gr. λεξικό- LEXICON + -γραφία -GRAPHY.] The writing or compilation of a lexicon or dictionary; ‘the art or practice of writing dictionaries’ (J.).

¹⁹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. J.III – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 844 bet. B.165.

¹⁹⁶ Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2013. – 144 bet. B.65.

¹⁹⁷ Hartmann, R.R.K. and Gregory James. 1998. *Dictionary of Lexicography*. London/New York: Routledge.

(Leksikografiya - Leksika yoki lug‘at yozish yoki tuzish; ‘lug‘at yozish san’ati yoki amaliyoti’).¹⁹⁸

ЛЕКСИКОГРАФИЯ англ. lexicography, фр. lexicographie, исп. lexicografia. 1. Наука о составлении словарей.

2. Составление словарей как описание лексики данного языка.

3. Совокупность словарей, относящихся к данному языку или области знания.¹⁹⁹

(LEKSIKOGRAFIYA Ingliz tili. leksikografiya, fr. leksikografi, ispan leksikografia. 1. Lug‘atlar tuzish ilmi.

2. Berilgan tilning lug‘at tarkibining tavsifi sifatida lug‘atlar tuzish.

3. Berilgan til yoki bilim sohasiga oid lug‘atlar to‘plami.)

ЛЕКСИКОГРАФИЯ [< греч. lexikon словарь + grapho пишу] 1. Собирание слов к.-л. языка, приведение их в систему и издание в виде лексикона, словаря. Словарное дело, составление словарей. 2. Совокупность словарей, словарная литература. 3. Раздел лингвистической науки, описывающий принципы составления словарей, зонную структуру словарной статьи, макрокомпозицию и микрокомпозицию словарей.²⁰⁰

(LEKSIKOGRAFIYA [< grekcha. leksikon lug‘at + grafo yozaman] 1. Har qanday tildagi so‘zlarni to‘plash, ularni bir tizimga keltirish va leksika yoki lug‘at shaklida nashr qilish. Lug‘at ishi, lug‘atlar tuzish. 2. Lug‘atlar to‘plami, lug‘at adabiyoti. 3. Lug‘atlarni tuzish tamoyillari, lug‘at maqolasining tarmoqli tuzilishi, lug‘atlarning makrokompozitsiyasi va mikrokompozitsiyasini tavsiflovchi tilshunoslik fanining bo‘limi).

MUHOKAMA. Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, leksikografiyaga izoh berish keyingi yillarda ancha mukammallashgan va bu uning mohiyatini anglash bilan bog‘liqdir. Bu izohlarni umulashtirgan holda biz quyidagi izohni taklif qilgan bo‘lardik: Leksikografiya - har xil turdagiligi lug‘atlarni tuzish va ularni tuzish tamoyillarini o‘rganadigan amaliy tilshunoslikning maxsus sohasi; lug‘atlar tuzish amaliyoti va ma‘lum bir tilning lug‘atlari to‘plamidir.

Ko‘pgina olimlar qatorida H. Bergenholz va R. Gouws "leksikografiya" terminini aniqlashning turli yondashuvlarini tahlil qiladilar²⁰¹. Olimlar uchta manbara murojaat qilishadi: umumiyligi manbalar (bosma izohli lug‘atlar va Google qidiruv tizimining individual natijalari), leksikografiyaga oid LSP (Language for Specific Purposes ya‘ni "Maxsus maqsadlar uchun til") lug‘atlari va leksikografiya sohasidagi ilmiy nashrlar. Natijada mualliflar leksikografiyaning ikki turini ajratadilar:

• lug‘atlarning asosan vazifasi, tuzilishi va mazmuni bilan bog‘liq holda nazariyalarini ishlab chiqish va kontseptuallashtirish bilan shug‘ullanuvchi metaleksikografiya yoki nazariy leksikografiya;

¹⁹⁸ The Oxford English Dictionary. Second Edition (1997). Volume IV of VI. P 13999. p. 931

¹⁹⁹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1966. - 598 с. С.208.

²⁰⁰ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 4-е, испр. и доп. Назрань: ООО «Пилигрим», 2005. – 376 с. с.143.

²⁰¹ Bergenholz, Henning & Gouws, Rufus. (2012). What is Lexicography?. Lexikos. 22. 10.5788/22-1-996.

- aniq lug‘atlarni rejalashtirish va tuzish bilan shug‘ullanuvchi amaliy leksikografiya yoki leksikografik amaliyat (Bergenholtz, Gouws, 2012, 38).

Ushbu ishda qiyosiy yo‘nalishda ingliz leksikografiyasi ko‘rib chiqilayotgani uchun ingliz leksikografiyasi bo‘yicha nufuzli darsliklar va monografiyalar (Vinogradov, 1977; Gerd, 1986; Grinev, 1995; Karpova, 2010; Stupin, 1985; Tabanakova, 2001; Ujova, Atjova, 2011; Rundell, 2000, 2010; Fuertes-Olivera, 2018, 2002; va boshqalar), shuningdek, xalqaro leksikografik konferensiyalar va simpoziumlar natijalariga asoslangan materiallar to‘plamlari (LEXeter, EURALEX; eLex; AFRILEX; LSP Symposium va boshqalar) o‘rganildi.

Zamonaviy leksikografiya ma’lum bir davr jamiyati haqidagi bilimlar to‘plamini qayd etadigan lug‘atlarning muhim ijtimoiy funksiyasini ta’kidlaydi. Lingvistik ma’lumotlarga olish uchun leksikograflar til texnologiyasiga muhtoj; ma’lumotlarni samarali tahlil qilish va undan foydali xulosalar chiqarish uchun leksikograflarga lingvistik nazariya kerak; va agar leksikograflar undan foydalanadigan odamlar uchun ochiq va tegishli til tavsifini yaratmoqchi bo‘lsa, maqsadli auditoriyaning ehtiyojlarini tushunishi kerak.²⁰²

Barcha zamonaviy leksikografiyaning o‘ziga xos xususiyati, Yu. D. Apresyanning fikricha, "so‘zning keng ma’nosida filologiya va madaniyatning sintezi. Har qanday xalq madaniyatining salmoqli qismi uning tili orqali amalga oshadi va til o‘zining barcha boyligi bilan birinchi navbatda lug‘atda o‘z ifodasini topgan".²⁰³ Ushbu g‘oyani rivojlantirar ekanmiz, aytishimiz mumkinki, madaniyatning bir qismi so‘z ustalari (yozuvchilar, faylasuflar, publisistlar va boshqalar) tili orqali amalga oshiriladi va ikkinchisi - tobora ortib borayotgan hajmda - lug‘atlarda paydo bo‘ladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda leksikografiyaning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. XX asrning oxirgi o‘n yilligi va XXI asrning boshlaridagi ilm-fan va texnologiyaning jadallik bilan rivojlanishi elektron lug‘atlarning paydo bo‘lishiga va ulardan foydalanish zaruratining oshishiga olib keldi. Bu lug‘atlar foydalanuvchi uchun qulay. Chunki unda istalgan ma’lumotni tez izlab topish, tahrir qilish mumkin va u doimiy yangilanib borish xususiyatiga ega. Bunday elektron lug‘atlar leksikografiyaning yangi yo‘nalishi – kiberleksikografiyanı rivojlanishni taqozo etmoqda. Bu esa nafaqat jahon balki o‘zbek tilshunosligining ham kiberleksikografiya sohasini ham rivojlantirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish va samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Kiberleksikografiya sohasini rivojlantirish uchun o‘zbek tilida to‘liq baza yaratish, avtomatik tahrirlash, boshqa tildan o‘zbek tiliga yoki aksincha tarjima uchun dasturlar yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa leksikografiyaning zamon talabi bilan rivojlanadigan soha ekanligini va uni rivojlantirish uchun doimiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Bu haqida tilshunos olim Anna Vejbitskaya

²⁰² B. T. Sue Atkins and Michael Rundell. The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford University Press Inc., New York. 2008. 553 p. (p 15)

²⁰³ Апресян Ю. Д. Языки русской культуры. М., 1993. (p29)

shunday degandi: “Qattiq nazariy asoslarga asoslangan jiddiy leksikografik tadqiqotlar davri endigina boshlanmoqda”.²⁰⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. B. T. Sue Atkins and Michael Rundell. *The Oxford Guide to Practical Lexicography*. Oxford University Press Inc., New York. 2008. 553 p. (p 15)
2. Bergenholz, Henning & Gouws, Rufus. (2012). *What is Lexicography?*. Lexikos. 22. 10.5788/22-1-996.
3. Hartmann, R.R.K. and Gregory James. 1998. *Dictionary of Lexicography*. London/New York: Routledge.
4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - T.: O‘zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2013. - 144 bet. B.65.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. J.III - T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. 844 bet. B.165.
6. The Oxford English Dictionary. Second Edition (1997). Volume IV of VI. P 13999. p.931
7. Апресян Ю. Д. Языки русской культуры. М., 1993. (p29)
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1966. - 598 с. С.208.
9. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание - М., 1996. 416 с. (226 с)
10. Жеребило Т.В.Словарь лингвистических терминов. Изд. 4-е, испр. и доп. Назрань: ООО «Пилигрим», 2005. – 376 с. с.143.

²⁰⁴ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание - М., 1996. 416 с. (226 с)